

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XAMRAYEVA SHAXLO IBRAGIMOVNA

**BIRINCHI INSTANSIYA SUDLARIDA VOYAGA YETMAGANLARNING
JINOYATLARI HAQIDAGI ISHLARNI KO'RIB CHIQISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Xamrayeva Shaxlo Ibragimovna

Birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko‘rib chiqishni takomillashtirish.....3

Хамраева Шахло Ибрагимовна

Совершенствование рассмотрения уголовных дел в отношении несовершеннолетних в судах первой инстанции.....21

Khamrayeva Shaxlo Ibragimovna

Improving the consideration of criminal cases against minors in courts of first instance41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ45

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

XAMRAYEVA SHAXLO IBRAGIMOVNA

**BIRINCHI INSTANSIYA SUDLARIDA VOYAGA YETMAGANLARNING
JINOYATLARI HAQIDAGI ISHLARNI KO‘RIB CHIQISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1469 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Astanov Istam Rustamovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Suyunova Dilbar Juldashbayevna
yuridik fanlar doktori, professor

Kuchkarov Xayrulla Zikirillaevich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 11 dekabr kuni soat 14:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel./faks: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1447-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 25-noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 25-noyabrdagi 64-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

I.B.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

D.B.Bazarova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc),
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlari sud tizimida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuqori sudlarda tekshirish, quyi sudlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni tuzatish salmog‘i yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, 2024-yil davomida Amerika Qo‘shma Shtatlarida har 3 ta apellyatsiya shikoyatlarining 1 tasi yuqori sudlarda qanoatlantirilgan¹. Yoki, Belarus Respublikasi Oliy sudining ma‘lumotlariga ko‘ra kassatsiya va nazorat instansiya sudlarida hukmlarning 39 foizi o‘zgartirilib, 10,2 foizi esa bekor qilingan². Rossiya Federatsiyasida ushbu ko‘rsatgichlar 18 foizni tashkil qilgan³. Bunga, sudlarda voyaga yetmagan sudlanuvchilarga nisbatan maxsus protsessual normalarni qo‘llashdagi kamchiliklar, ularga nisbatan individual psixologik yondashuv vositalarining yetarli darajada amalga oshirilmasligi kabi qator muammolar sabab bo‘lmoqda. Bu esa sudlarda, shu jumladan birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni muhokama qilishda sudlanuvchining ijtimoiy-huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish hamda protsessual huquqlarini amalga oshirishda ularga yordam berishga qaratilgan maxsus normalarni qo‘llash mexanizmini takomillashtirish masalasini taqozo qiladi.

Jahonda sudlov tizimining shaxsga, xususan voyaga yetmaganlarga nisbatan salbiy ta’sirlarini oldini olish, ushbu sohada sudlov faoliyatini yanada isloh qilish, voyaga yetmagan sudlanuvchilar oldida vujudga keladigan muammolarning sabab va sharoitlarini o‘rganish, ularni bartaraf etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, mazkur yo‘nalishda sud tizimini ixtisoslashtirish, jinoyat protsessiga jalb qilingan o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning qonuniy manfaatlari himoyasiga oid maxsus normalarni takomillashtirish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan bu toifadagi ishlarni ko‘rish jarayonida sudlarda, xususan birinchi instansiya sudlarida xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi bugungi kunda ushbu sohadagi sudlov tizimning nazariy, amaliy va huquqiy masalalarini kompleks tarzda o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularga yechim berish masalasini taqozo etmoqda.

Mamlakatimiz sud-huquq tizimida, protsessual harakatlarni o‘tkazishda voyaga yetmaganlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish borasida muayyan natijalarga erishilgan. Jumladan, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiga nisbatan jinoyat ishlarini yuritishda ularning huquq va erkinliklari kafolatlarini nazarda tutadigan huquqiy asoslar shakllangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual

¹ Increasing Juvenile Appeals An Underused Critical Check on the Juvenile Delinquency System. URL: <https://www.defendyouthrights.org/wp-content/uploads/Increasing-Juvenile-Appeals>.

² Практика применения судами законодательства при рассмотрении уголовных дел о преступлениях несовершеннолетних (по материалам обзора). URL: <https://etalonline.by/document/regnum>.

³ Кассация не соглашается с апелляцией все чаще. URL: <https://fparf.ru/news/media/kassatsiya-ne-soglashaetsya-s-apellyatsiey-vse-chashche>.

qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida¹ voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan jinoyat-protsessual normalarni takomillashtirish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash, shuningdek, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni profilaktika qilish va oldini olish bo'yicha choralarni kuchaytirish protsessual qonunchilikni takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifalar jinoyat protsessiga jalb qilingan voyaga yetmaganlarni tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarni xalqaro andozalarga muvofiq ravishda qayta ko'rib chiqish, bu borada odil sudlovning aniq mezonlarini yaratish, sud muhokamasiga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etishning samarador yo'llarini ishlab chiqish masalalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi PF-4850-son "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 10-avgustdagi PF-6041-son "Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 16-yanvardagi PF-12-son "Odil sudlov faoliyatini amalga oshirishni samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi" hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining o'rganilganlik darajasi. Mavzuning ayrim jihatlari milliy olimlarimiz A. Irsaliyev, E.G. Kashket, A.A. Bozorov, S. Saxaddinov, Z.F. Inog'omjonova, G.Z. Tulaganova, D.J. Suyunova, D.B. Bazarova, U.A. Tuxtashva, I.R. Astanov A.V. Kulaxmetov, N.A. Ramazonova, O. Allanazarova, V.B. Fayzullayeva, B.M. Umarov, U. Abduganiyev, I.M. Sobirov, U.Sh. Xoliqulov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan, huquqshunoslarimiz ilmiy ishlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishning umumiy jihatlari va tergov uslubiyoti bilan bog'liq masalalar shuningdek, bu toifadagi ishlarni sudda ko'rishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jihatlarni muayyan darajada yoritilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi. 3,5-bandlar. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018-y., 06/18/5547/1975-son.

Jumladan, A. Irsaliyev voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini birinchi bosqich sudida yuritishning xususiyatlarini, N.A. Ramazonova voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish masalalarining xalqaro andozalarini tahlil etgan holda, ushbu andozalarga muvofiq O‘zbekiston jinoyat-qonunchiligini takomillashtirishga doir ayrim jihatlarni tadqiq etgan.

Voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini yuritishda pedagogning protsessual ishtiroki bilan bog‘liq nazariya, xususan uning protsessual maqomi bahsli masalalar olimlarimiz S. Saxaddinov, A.A Bazarov, Z.F. Inog‘omjonova, G.Z. Tulaganovalar tomonidan o‘rganilgan.

O‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishga oid masalalar bir qator xorijiy mamlakat huquqshunoslarining tadqiqot predmetini tashkil qilib, ular G. Oksenbay, O.Yu. Andriyanova, K.A. Avalian, N.P. Dudin, S.A.Lugovseva, Ye.V. Markovicheva, V.Ya. Ribalskova, S.Yu. Tetyuyev, G.P. Zotova, I.P. Kokurin, O.V. Xarseyeva, R.S. Xismatullin, I.Ya. Foynitskiy, A.P. Antonov, Ya.L. Drapki, M.S. Strogovich, S.S. Ponomarenko, E.B Melnikov va boshqa boshqa bir qator olimlarning ilmiy ishlarida ham aks ettirilgan¹.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko‘rib chiqishni takomillashtirish” doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishning alohida jihatlarni kompleks o‘rganish asosida muammolarni aniqlash va ularga yechim topish orqali milliy qonunchilikni takomillashtirishg bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud muhokamasi tushunchasi, tavsifi va rivojlanish tarixini tahlil qilish;

ayrim xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual qonunchiligida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ish yuritishga oid masalalarni qiyosiy tahlil qilish;

voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ish yuritishga oid xalqaro huquqiy asoslarni tahlil qilish hamda milliy qonunchilikka implementatsiya qilishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish;

birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni muhokama qilish uchun tayyorlash bosqichining o‘ziga xos jihatlarni o‘rganish;

voyaga yetmaganlarga nisbatan sud tergovini o‘tkazishning alohida qoidalarini tahlil qilish;

voyaga yetmaganlarga oid jinoyat ishlari bo‘yicha sud muhokamasida taraflar muzokarasining xususiyatlarini aniqlash;

¹ Bu manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni soddalashtirilgan tartibda yuritishning qonunchilik asoslarini tahlil qilgan holda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga oid tavsiyalar berish;

birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat ishlarini ko'rilishida mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish xususida ilmiy asoslantirilgan xulosalarni berish, shuningdek huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rishning jinoyat-protsessual tartibini belgilab beruvchi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqot predmetini birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritishni tartibga soluvchi jinoyat-protsessual qonunchilik normalari, huquqni qo'llash amaliyoti, xususan sud amaliyotiga doir hujjatlar, yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar, huquqiy kategoriyalar hamda ayrim xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili hamda intervyu kabilardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jinoyat protsessiga jalb etilgan voyaga etmaganga pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish orqali uning huquqlarini himoya qilishga bo'lgan zarurat sababli birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni muhokama qilishda pedagogni jalb qilinishi hamda sudlanuvchining pedagog yordamidan foydalanishiga bo'lgan huquqining ta'minlanishi jinoyat ishini yuritayotgan sudning zimmasiga yuklatilishi zarurligi asoslantirilgan;

voyaga yetmaganga nisbatan jinoyat ishlari bo'yicha sud majlisida bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiya vakilining ishtirok etish zaruratining mavjudligi sababli, sud voyaga yetmagan shaxsning jinoyati to'g'risidagi ishni ko'rish vaqti va joyi haqida bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiyaga xabar berishi lozimligi haqidagi talabning O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining tegishli qaroriga kiritilishi kerakligi asoslantirilgan;

jinoyat protsessining voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan yanada insonparvarligini ta'minlash va uning qonuniy manfaatlarini ishonchli himoyasini kuchaytirishga bo'lgan talabning mavjudligi sababli voyaga yetmagan sudlanuvchiga oid ishlar lavozimiga ko'ra o'n yillik va undan yuqori muddatga tayinlangan va maxsus tayyorgarlikdan o'tgan sudyalar tomonidan ko'rilishi, shuningdek bu toifadagi ishlar faqat yopiq sud majlisida muhokama qilinishi lozimligi haqidagi talablar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tegishli qarorlariga kiritilishi asoslantirilgan;

voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni soddalashtirilgan tartibda yuritishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish lozimligi sababli birinchi instansiya sudlari tomonidan voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan yarashuv institutini qo'llanilishida uning aniq yoshi, shaxsiga xos xususiyatlari va salomatligi holati, turmush va tarbiyalanish sharoitlari, katta yoshli dalolatchilar hamda boshqa

ishtirokchilarning bor yoki yo'qligi kabi holatlarning tekshirilganligiga huquqiy baho berish kerakligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinoyat ishini yurishda sud muhokamasining sudlanuvchining turmush va tarbiyalanish sharoitlarini o'rganish, uni tarbiyalash shuningdek, yangi jinoyat sodir qilishining oldini olishdan iborat asosiy vazifalarini inobatga olib, bolalar masalalari bo'yicha komissiya vakilining sud majlisidagi majburiy ishtirokini ta'minlash kerakligi haqidagi takliflar asoslangan;

dissertatsiyada muallif pedagogning voyaga yetmagan sudlanuvchi bilan sud muhokamasining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi ruhiy to'siqlarni kamaytirishga ko'maklashuvchi shaxs deb hisoblaydi va uning voyaga yetmagan sudlanuvchini so'roq qilishda jalb qilinishi, pedagogning huquq va majburiyatlarini aniq belgilagan holda protsessual maqomini belgilash lozimligi bo'yicha takliflar asoslangan;

O'zbekiston Respublikasi JPKning 548-moddasiga asosan, sud muhokamasi davrida voyaga yetmagan sudlanuvchining shaxsiga xos xususiyatlari, salomatligi holati, uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari kabi holatlarni unga nisbatan yarashuv yoki aybga iqrorlik kelishuviga oid ish yuritishda ham tekshirish lozimligi haqida fikrlar asoslangan;

voyaga yetmagan sudlanuvchining u sodir qilgan qilmishiga nisbatan jamiyatning qonuniy munosabatini tushunishi va o'z nuqtayi nazarini sudga erkin bayon etishi – sud jarayonining maksimal tarbiyaviy ta'siriga erishishni kafolatlovchi choralardan biri ekanligini hisobga olib, sudlar voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha "tarafklar muzokarasi" bosqichining sudlanuvchiga tushunarli muhitda o'tkazilishi masalasini ko'rib chiqishi kerakligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslangan, 1765 nafardan ortiq prokuratura xodimlari va sudyalardan o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy ijtimoiy so'rovlar, shuningdek 230 dan ortiq sud hukm va ajrimlar, 2020–2024-yillar hamda 2025-yilning 1-yarmidagi statistik ma'lumotlar, tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda foydalaniladi hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish va Jinoyat huquqi, Jinoyat-protsessual huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishg xizmat qiladi, tadqiqot natijalaridan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlar tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda,

oliy yuridik ta'lim muassasalarida jinoyat huquqi va jinoyat ijroiya huquqi fanlarini o'qitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko'rib chiqishni takomillashtirish mavzusini tadqiq etish bo'yicha olingan xulosalar natijalari asosida:

birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni muhokama qilishda pedagogning jalb qilinishi hamda sudlanuvchining pedagog yordamidan foydalanishiga bo'lgan huquqining ta'minlanishi jinoyat ishini yuritayotgan sudning zimmasiga yuklatilishi lozimligi haqidagi asoslantirilgan taklif O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 554-moddasini to'ldirishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashishi qo'mitasining 23.08.2023-yildagi 06-13/56-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi pedagogning sud muhokamasiga jalb qilinishi ishni yuritish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslarning vakolati emas, balki voyaga yetmagan sudlanuvchining huquqi ekanligi masalasi aniqlashtirilib, ushbu ma'sus qoidaning amaliyotga to'g'ri qo'llanilishiga xizmat qiladi;

voyaga yetmagan sudlanuvchining pedagog yordamidan foydalanishiga bo'lgan huquqining qonunchilikda belgilanishi haqidagi ishlab chiqilgan taklif O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 554-moddasini o'zgartirishda inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 04.05.2023-yildagi 27/2-128-23-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi sud muhokamasida voyaga yetmagan sudlanuvchining pedagog xizmatidan foydalanishi kafolatlanib, bu borada uning qonuniy manfaatlari va erkinlarini to'la ta'minlanishiga xizmat qiladi;

sud voyaga yetmagan shaxsning jinoyati to'g'risidagi ishni ko'rish vaqti va joyi haqida bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiyaga xabar berishi shartliligi haqida bildirilgan takliflar O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Qarorining 4-bandiga o'zgartirish kiritishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudning 15.08.2023-yildagi 10/2023-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy qilinishi bollar masalalari bo'yicha hududiy komissiyalarning sudlar tomonidan voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan tarbiyaviy choralari to'g'ri tanlashdagi rolini oshirishda xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga "voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar" jumlasini "bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar" tahririda bayon qilish haqida ishlab chiqilgan takliflar mazkur kodeksning 536, 537, 542, 551, 562-moddalarini yangi tahrirda ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 22.05.2023-yildagi 27/2-167-23 dalolatnomasi). Qonunchilikka kiritilgan ushbu o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-iyuldagi 363-son qarori bilan tasdiqlangan "Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya to'g'risida"gi Nizomning aniq va bir xilda bajarilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (shundan 2 ta maqola xorijiy jurnalda) va to‘plamlar tarkibida 6 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 133 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirishi** (dissertatsiyasi annotatsiyasi)da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilgan muammoning o‘rganganlik darajasi, tadqiqot ishi mavzusining dissertatsiya olib borilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi hamda ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini ko‘rishning nazariy-huquqiy asoslari”** nomli birinchi bobida “voyaga yetmagan sudlanuvchi”, voyaga yetmagan sudlanuvchining jinoyat-protsessual huquq va muomalaga layoqatliligi”, “voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud muhokamasi” “voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni ko‘rib chiqishning asosiy vazifalari” tushunchalari, sudlanuvchining ijtimoiy holatiga, yoshiga oid xususiyatlari, birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlarini ko‘rishning tavsifi hamda voyaga yetmaganlarga oid jinoyat ishlarini sudda yuritishga oid qonun normalarining rivojlanish tarixi, takomillashib borishi, ushbu institutning o‘ziga xos jihatlari va vazifalariga doir nazariy-huquqiy qarashlar o‘rganilgan, ba‘zi xorijiy davlatlar qonunchiligidagi normalar qiyosiy tahlil qilingan.

Dissertant sudlarda voyaga yetmaganlarga oid jinoyat ishlarini muhokama qilish ish yuritishning nisbatan murakkab turi ekanligiga urg‘u berib, sudlanuvchiga nisbatan jinoyat-protsessual qonun talablarini qo‘llashda voyaga yetmaganning ijtimoiy-huquqiy holatiga alohida e‘tibor qaratgan.

Ushbu bobda “voyaga yetmagan sudlanuvchi” yagona tushunchasini belgilash zarurati o‘rganilib, jinoyat-protsessual huquq hamda muomalaga layoqatliligi tushunchasi, voyaga yetmaganning ijtimoiy to‘la shakllanmaganligi, jismoniy va ruhiy yetuk emasligi kabi xususiyatlari bilan bog‘lab tadqiq qilingan.

Jumladan, tadqiqotchi “voyaga yetmagan sudlanuvchi” tushunchasiga oid turli yondashuvlar mavjudligini qayd etib, asosiy yondashuv sudlanuvchining ijtimoiy-

huquqiy himoyasizligi bilan izohlanishini e'tirof etgan. Ishda voyaga yetmagan sudlanuvchi tushunchasiga jinoyat-protsessual huquqiy va statistik ma'lumotlar asosida izoh berilgan.

Shuningdek, dissertant tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishning maqsadi bu toifadagi ishlarni jinoyat protsessining umumiy vazifalaridan tashqari yana alohida protsessual vazifalar asosida bajarishi lozimligini ta'kidlanib, bunda sudlarda voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ish yuritishni maksimal darajada individuallashtirish va sudlanuvchi shaxsini juda yuqori darajada o'rganish, voyaga yetmaganlarning jinoyatlarini oldini olish, jinoyat sodir qilgan voyaga yetmaganni to'g'ri tarbiyalashni yo'lga qo'yish kabi talablar tavsiflangan.

O'z navbatida, mazkur bobda O'zbekistonda voyaga yetmaganlarga oid jinoyat ishlarini sudda yuritish instituti rivojlanishi tarixining har bir davriga alohida yondashilganligi hamda voyaga yetmaganning jinoiy javobgarlik yoshi, ularga nisbatan odil sudlovning maqsadlari, sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlariga qo'shimcha shartlarni nazarda tutadigan jinoyat-protsessual normalarning uch nazariya asosida, ya'ni "javobgarlik yoshi", "qilmishni anglay olish qobiliyatining shakllanganligi" hamda jinoyat sodir qilgan "voyaga yetmaganni tarbiyalash" kabi taraqqiyot yo'nalishi asosida rivojlanganligi qayd qilingan.

Dissertant O'zbekiston Respublikasi hududida voyaga yetmaganlarga oid jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual tartibi belgilangan hujjatlarni ishlab chiqishga bo'lgan zarurat (tendensiyasi) va tarixini o'rganishda 1922, 1926, 1956-yillarda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodekslari va boshqa protsessual qonun hujjatlaridagi mazkur toifadagi ish yuritishni nazarda tutadigan normalar qiyosiy tahlil qilingan.

Muallif mazkur sohaga oid sud-tergov faoliyatini tubdan isloh qilish negizida "voyaga yetmaganni tarbiyalash" konsepsiyasi tashkil topganligiga to'xtalib, O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan jinoyat-protsessida voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlari himoyasini yanada kuchaytirishga qaratilganligi, 1994-yildagi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessi qonuni vazifalari tubdan yangilanganligi munosabati bilan o'n sakkiz yoshga yetmagan shaxslarning huquq va manfaatlari alohida himoya obyekti sifatida muhofaza qilinganligini, sud-huquq tizimida ustuvorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etganligini ta'kidlangan.

O'z navbatida, yurisprudensiyada "voyaga yetmagan sudlanuvchi" tushunchasiga aniq ta'rif berilmaganligi, bugungi sud-huquq sohasining sohaviy rivojlanish darajasiga mos kelmasligi, unda jinoyat-protsessining umumiy normalari ifodalanganligi sababli sudda voyaga yetmaganga nisbatan jinoyat ishini yuritishga oid normalarni qo'llashda muammolar va qator qiyinchiliklar mavjudligi, ushbu sohani tizimli o'rganilmaganligi alohida ko'rsatilgan.

Dissertatsiyada voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan jinoyat-protsessual jarayonlarning salbiy ta'sirini oldini olishning jinoyat-protsessual choralari takomillashtirish nuqtayi nazaridan bu boradagi xalqaro prinsipial qoidalarni o'rganish bilan birga, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat-protsessual normalarini tahlil

qilish muhim ahamiyatga egaligi, ushbu davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Belarus Respublikasi, Germaniya, Rossiya) jinoyat-protsessual qonunlarida tadqiq etiladigan protsessual harakatlar turlicha ekanligi aniqlanib, tadqiqotchi voyaga yetmaganlarga nisbatan bo'lgan jinoyat ishlarini sudda muhokama qilishga oid normalarni qiyosiy tahlil qilib, bu boradagi ishlar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan sudyalardan tomonidan ko'rib chiqilishi hamda bu toifadagi ishlarning yopiq sud majlislarida muhokama qilinishining o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Shu bilan birga, tadqiqot ishida voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni yuritishga oid xalqaro huquq me'yorlarini tahlil qilib, voyaga yetmaganing maxfiylikka taalluqli huquqi barcha sud bosqichlarida hurmat qilinishi hamda voyaga yetmaganlarga nisbatan ishlar maxsus bilimga ega bo'lgan sudyalardan tomonidan ko'rilishiga taalluqli bo'lgan me'yorlar tahlil qilingan.

Tadqiqotchi ishlarni yopiq sudda ko'rishdan iborat qonun talabini sudning vakolati sifatida emas balki voyaga yetmagan sudlanuvchining huquqi ekanligini ta'kidlaydi. U bu haqida nazariy qarashlarni (S. Saxaddinov, S. Lugovsova, E. Melnikova) tahlil qilgan holda, Xitoy Xalq Respublikasi, Belarus Respublikasi, Germaniya kabi davlatlarning ijobiy huquq tajribasini o'rganib, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari bo'yicha sud muhokamasi to'liq yopiq shaklda o'tkazilishi haqidagi takliflarni bildirgan. Mazkur taklif so'rovnomalar natijalariga ko'ra respondentlarning 61 foizi tomonidan quvvatlangan.

Dissertatsiyaning **“Birinci instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni muhokama qilishning protsessual jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi uchta paragrafdan iborat bo'lib, unda voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasining mohiyati, bosqichlari, ularda ish yuritish tartibi va asoslari tahlil qilingan.

Dissertant, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud majlisi tayyorlash bosqichining alohida jihatlari o'rganib, sud muhokamasining tayyorlov bosqichida voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan protsessual qo'shimcha kafolatlarni amalga oshirilishining ahamiyati va protsessual asoslarini atroflicha yoritib bergan.

A. Irsaliyev, A. Qulaxmetov, Y. Ilgova, S. Zaykova, V. Vyacheslav, Y. Markovichevalarning bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiya vakillarining jinoyat-protsessual maqomiga alohida e'tibor qaratib, olimlarning muqaddam sodir qilgan jinoyat yoki huquqbuzarligi uchun yakka tartibdagi profilaktik ishlar tashkil qilgan komissiya vakili (ichki ishlar, ta'lim muassasasi xodimlari) sudda guvoh sifatida ishga jalb qilinishi kerakligi haqidagi qarashlari yoki aksincha, uning voyaga yetmagan sudlanuvchi to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni olishda sudga yordam berish, sud muhokamasi davomida tarbiyaviy jarayonlarda qatnashishdan iborat bo'lgan vazifalarni bajarishi sababli komissiya vakilining protsessual maqomini “guvoh” emas balki protsessning mustaqil ishtirokchisi hisoblanishi degan fikrlarini tahlil qilib, mazkur masalaga o'z munosabatini bildirgan.

Dissertant doktrinal qarashlar va xalqaro tajribaga tayanib, mazkur toifadagi ishlar bo'yicha sud majlisining tayyorlash bosqichidan boshlab bolalar masalalari bo'yicha hududiy komissiya vakilining majburiy ishtirokini amaliyotga keng joriy

qilishining qonuniy asoslarini ishlab chiqish lozimligi haqida xulosa qilgan. Idoraviy vazifasiga ko'ra komissiyalar voyaga yetmagan sudlanuvchi tomonidan jinoyat sodir qilishining kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish choralari amalga oshiradi, shuningdek kelgusida aybdor deb topilgan voyaga yetmaganga nisbatan profilaktik tadbirlarni tashkillashtiradi va nazorat qiladi, degan nuqtayi nazarni ilgari surgan.

Bu borada ayrim xorijiy davlatlarning sohaga oid jinoyat-protsessual normalari o'rganilgan. Masalan, Yaponiyaning jinoyat-protsessual qonun hujjatlariga ko'ra viloyat, shahar, tuman davlat hokimiyati va boshqaruvi organi hisoblangan ijtimoiy ta'minot vakili sudning barcha bosqichlarida ishtirok etishi shart. Unga voyaga yetmagan sudlanuvchining ijtimoiy ta'minoti va ahvoli bo'yicha tavsiyalar tayyorlash, sudyaga maslahatlar berish va sud muhokamasining barcha bosqichlarida sudlanuvchiga psixologik-ijtimoiy ko'maklashish vazifasi yuklatilgan. Qozog'iston Respublikasining qonun hujjatlarida ("Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyati va ularning huquqlarini himoya qilish haqida"gi Yo'riqnoma) voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya vakillarining sudlarda voyaga yetmagan sudlanuvchining huquqlarini himoya qilish, ularning yashash sharoitlarini o'rganib borishi lozimligi belgilangan.

Muallif ilmiy qarashlar va xorijiy tajribaga tayanib, shuningdek, sud muhokamasining voyaga yetmagan shaxsga nisbatan asosiy maqsadlarini inobatga olib, komissiya vakilining sud muhokamasining barcha bosqichlarida to'liq ishtirok etishi majburiy ekanligini asoslantirgan.

Tadqiqot ishida sud muhokamasida voyaga yetmagan sudlanuvchining shaxsiga xos xususiyatlar va uning salomatligi holati, shuningdek uning turmush va tarbiyalanish sharoitlarini tekshirishdagi ishtirokini nazarda tutadigan qonunchilik normalarini tahlil qilib, bu borada Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga a'zo davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishida sud muhokamasining sud tergovni bosqichida pedagog ishtirokining samaradorligi masalasini muhokama qilib, voyaga yetmagan sudlanuvchini so'roq qilishda pedagog ishtirokining o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertant pedagogning protsessual maqomi xususida, ya'ni sud muhokamasida ishtirok etadigan pedagog vazifasiga, shuningdek uni ishga jalb qilish maqsadiga ko'ra mutaxassisdan farq qilish-qilmasligi mavzusida ilmiy munozaralar olib borib, voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilishda ishtirok etadigan pedagogning jinoyat ishini yuritishga yordam beradigan mutaxassis sifatida jalb qilingan pedagogdan shuningdek, jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilaridan farqli ravishda alohida subyektini hisoblanishi haqidagi asoslantirilgan xulosaga kelgan. Ushbu xulosa, unga munosabat bildirganlarning 86,4 foizi tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Shunga ko'ra, muallif jinoyat-protsessual qonunchiligiga voyaga yetmagan sudlanuvchini sudda so'roq qilishda jalb qilingan pedagogni jinoyat-protsessining alohida subyektini sifatida uning protsessual huquq va majburiyatlarini nazarda tutadigan normalarni belgilash haqida taklif ishlab chiqqan.

Shuningdek, tadqiqotchi sudlarda bu toifadagi ishlarni ko'rish uchun pedagog ishtirokiga zaruratning mavjudligi haqidagi yuridik va faktik holatlarni milliy qonunchilik, xalqaro huquqiy standartlar asosida shuningdek Fransiya, Gruziya, Belarus, Qazog'iston, Turkmaniston kabi davlatlarning huquqiy tajribasi misolida tahlil qilingan. Natijasiga ko'ra muallif tomonidan jinoyat-protsessual qonunchiligiga voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud muhokamasida ham pedagogni jalb qilish majburiyatini nazarda tutadigan qonun normasi kiritish lozimligi haqida asoslantirilgan takliflarni bildirgan.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari bo'yicha sud muhokamasining taraflar muzokarasi bosqichida davlat ayblovchisi va himoyachining nutqlarining mazmuni va bayoni kattalarga nisbatan taraflar fikrining bayoni bir xilligi amaliyotda talaygina. Bu muammoning yurisprudensiyada juda kam o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi.

B. Pulatov, V. Lazareva, G. Sayakbayev kabi protsessualistlarning "taraflar nutqi"ning umumiy asoslari va ahamiyati to'g'risidagi fikrlari hamda R. Shukurov, Y. Bryanskaya, N. Shishkinalar sud hukmining tarbiyaviy mazmuni va uning samarali ta'siri to'g'risidagi qarashlarini tahlil qilib, voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni alohida ish yuritishga ajratilganligi ularning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq deb hisoblaydi. Bu toifadagi ishlarni sudda ko'rib chiqishning maqsadi voyaga yetmagan shaxsni jazolash emas, balki uning to'g'ri hayot tarzini tanlashga yordam berishdan iborat va sudning tarbiyaviy xususiyati ham aynan shundadir.

Sudning har bir ish yakuni bo'yicha qabul qiladigan qarori ish holatlarining har tomonlama va chuqur tahlil qilinishi asosida bildirilgan protsess ishtirokchilarining fikrlari asosida shakllanadi. Hattoki, "taraflar muzokarasi" sudning noto'g'ri xulosaga kelishini oldini oladi. Taraflar muzokarasining ahamiyatli jihatlari aynan shunda namoyon bo'ladi.

Dissertant fikricha, muzokarada ayblov va himoya nutqlari voyaga yetmagan sudlanuvchiga uning sodir qilgan qonunga zid harakatlarini to'la-to'kis anglab olishiga, jinoiy qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasini va oqibatini tushunib olishiga ko'maklashadigan tarzda bayon qilishi kerak. "Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha taraflarning muzokarasi voyaga yetmagan sudlanuvchiga nisbatan tarbiyaviy ta'sir pozitsiyasida o'tkazilishi lozimligi" haqidagi tadqiqotchining fikri so'rovdan ishtirok etgan 71,5 foizi amaliyotchi-huquqshunoslar tomonidan quvvatlangan.

Sud muhokamasida taraflar muzokarasining xususiyatlari masalasida dissertant tadqiq etayotgan alohida toifadagi jinoyat ishlarini tahlil qilish natijasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorning "Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ishlarni ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to'g'risida"gi buyrug'i "davlat ayblovchisi o'zining muzokara nutqini sudlanuvchiga tushunarli tarzda bayon qilib, kelgusida sudlanuvchiga nisbatan samarali profilaktik choralarni ko'rish haqida fikr bildirishi kerak"ligi haqida talablar bilan to'ldirilishi lozimligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Birinchi instansiya sudlarida voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlarni soddalashtirilgan tartibda**

yuritishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish masalalari” deb nomlanib, ikkita paragrafdan iborat bo‘lib, unda voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud muhokamasining soddalashtirilgan shakllarining ayrim jihatlari tahlil qilingan va sohaga oid qonunchilik normalarini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Tahlillarga ko‘ra, respublikamizda jinoyat sodir qilgan shaxslar orasida voyaga yetmaganlarning ulushi yildan yilga ortmoqda. Bunga mutanosib ravishda sudlar tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan yarashuv institutini qo‘llash asosida ishlarni ko‘rib chiqishning salmog‘i oshgan. Jumladan, 2020-yilda 141 nafar, 2021-yilda 390 nafar va 2022-yilda 523 nafar, 2023-yilda 583 nafar, 2024-yilda 617 nafar, 2025-yilning 6 oyida 287 nafar voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinoyat ishlari taraflarning yarashganligi munosabati bilan tugatilgan¹.

Jinoyat ishi bo‘yicha taraflarning yarashganligi munosabati bilan ish yuritish bu – sud muhokamasining qisqartirilgan va yakuniga ko‘ra sud tomonidan alohida mazmunga ega bo‘lgan ajrim chiqarishdan iborat bo‘lgan ish yuritishning maxsus shakli hisoblanadi.

Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlari umumiy sudlov ishlarini yuritishga oid maxsus talablarga ham asoslangan. Xususan, JPKning 548-moddasiga asosan voyaga yetmagan sudlanuvchining shaxsiga xos xususiyatlari, salomatligi holati, uning turmush va tarbiyalanish sharoitlari tekshirilishi shart.

